

**MAKTABGACHA YOSHDAGI AQLI ZAIF BOLALARNI SO'Z
BOYLIGINI RIVOJLANTIRISHDA SAXNALASHTIRILGAN
O'YINNING AHAMIYATI**

Ziyodullayeva E'zoza Ne'matjon qizi

Nizomiy nomidagi TDPU

Oligofrenopedagogika kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tezisda maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarni so'z boyligini rivojlanishida saxnalashtirilgan o'yining ro'li haqida ma'lumot berilgan.

Kalit sozlar: mantiq, lug'at, nutq, o'yin, syujet, so'z boyligi.

Insonning eng muhim fazilatlaridan biri uning so'zlash qobiliyatiga ega bo'lib, nutq vositasida o'zaro aloqa bog'lay olishi, fikrlashidir. Turli tovushlarning ma'lum tartibda bиргалашив, payvasta bo'lib qo'shilishidan yuzaga kelgan ma'noli nutq muayyan organizmlarning faoliyati natijasida paydo bo'ladi.

Aqli zaif bolalarda bilish faoliyatining orqada qolishi va nutq rivojlanishining kechikishi ularning fikrlashi bilan bevosita bog'liq. Aqli zaif o'quvchilar o'zlarining nutqlarida kelishik qo'shimchalarini va bog'lovchilarini noto'g'ri va tushunmay ishlataladilar, bu tushunchalarni to'g'ri belgilash va umumlashtirishni bilmasliklaridan darak beradi. Boladagi nuqsonli rivojlanish so'z — mantiqning to'liq bazasini ta'minlamaydi.

U yoki bu darajadagi nutq buzilishlari bolaning barcha ruhiy nutq buzilishlari bolaning barcha ruhiy rivojlanishlariga salbiy ta'sir etadi, uning faoliyatida, yurish-turishida aks etadi. Og'ir nutqiy buzishlar aqliy rivojlanishiga, ayniqsa, bilish faoliyati oliy darajalarining shakllanishiga ta'sir etishi mumkin. Bu nutq va tafakkurning chambarchas bog'liqligi, ijtimoiy, jumladan nutqiy aloqalarning cheklanganligi bilan bog'langandir.

Nutq buzilishi, nutqiy muomalaning cheklanganligi bola shaxsining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, aslida bo'limgan ruhiy buzilishlarini hissiy-irodaviy sohaning o'ziga xos xususiyatlarini keltirib chiqarishi, uning xarakterdagи salbiy fazilatlarning rivojlanishi uchun yo'l ochib berishi mumkin.

Nutqning buzilishi bilish faoliyatga salbiy ta'sir qiladi, bolalar boshqalar bilan muloqot qilishda qiynaladi, kognitiv jarayonlarning shakllanishi kechiktiriladi.

Nutq o'yin jarayonida juda katta axamiyatga ega. Nutq orqali bolalar fikr almashadi, o'z xis-tuyg'u kechinmalarini o'rtoqlashadi. So'z bolalar o'rtasida dustona munosabatlar o'rnatalishiga, tevarak-atrofdagi hayot voqealari va faktlariga bir xilda munosabatda bo'lishga yordam beradi. O'yinda obraz, o'yin xarakati, so'z o'zaro

bog'lanib, o'yin faoliyatining asosiy negizini tashkil etadi, borlikni aks ettirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham o'yindan foydalanish ijobiy natijalarini beradi.

O'yin shaxsnинг barcha tomonlarini o'ziga jalb qiladi: bola harakatlanadi, gapiradi, idrok qiladi, fikrlaydi; o'yin davomida uning tasavvuri va boshqa psixik jarayonlari faollashadi. O'yin – bu erkin va mustaqil faoliyat bo'lib, bolaning shaxsiy tashabbuskorligi bilan yuzaga keladi, hamda faol ijodiy xarakter, yuksak emotsiyonal mazmunga boyligi bilan ajralib turadi. Bola rivojlanishida o'yin roli katta ahamiyatga ega bo'lib, u quyidagilarga bog'liq: soxta vaziyatdagi hatti-harakat bolani vaziyatli aloqadorlikdan ozod etadi, bola o'yindagi vaziyatni ko'rishgagina emas, balki uni fikrlash, bilish, idrok qilishga o'rganadi.

O'yinning tahlilida, uni alohida qobiliyatlar (idrok, xotira, tasavvur va b.) yig'indisiga joylashtirish mumkin, hamda bu qobiliyatlarning solishtirma og'irligini va rivojlanishini o'rganib chiqish lozim. Lekin bunday tahlil o'yin tabiatini va sifatining o'ziga xosligini tushunishga yordam bera olmaydi. Umumiy xususiyatga ega birliklarni ajratib chiqish zarur. Ushbu birlilik roldir. Aynan rol va u bilan organik jihatdan bog'liq bo'lган hatti-harakatlar rivojlangan o'yin shaklining birligi hisoblanadi. Syujet – bu voqelikning sohasi bo'lib, o'yin jarayonida bola tomonidan aks ettiriladi. Mazmun hatti-harakatning markaziy xarakterli momenti hamda bolalarning kattalar, ularning mehnati va ijtimoiy hayot orasidagi munosabati sifatida bola tomonidan aks ettiriladi. Rolli o'yinning rivojlangan, kengaygan shaklining mazmuni predmet va undan insonning foydalanishi emas, balki ushbu predmetlar orqali kattalarning amalga oshiradigan xatti-harakatlari bo'lib hisoblanadi.

Sahnalashtirish o'yinlari - bu bolalarning mustaqil ijodiy o'yin turi bo'lib, unda badiiy asar va hikoya bolalar tomonidan rollarga bo'lib iiro etiladi. Bu o'yinlar bolalarda nutq madaniyatini oshiradi, tafakkurini riojlantiradi, iroda, intizom va xatti-harakatlarni boshqara olish, boshqalarning harakatlari bilan hisoblashish kabi ijobiy xislatlarni shakllantiradi. Sahnalashtirish o'yinlari orqali farzandingiz o'yin jirayoniga bevosita kirib boradi, voqeа va ertak qahramonlarining ichki hayotiga bevosita aloqador bo'lган qahramonlik, jasurlik, mehribonlik, jonbozlik, jonkuyarlik kabi ijobiy fazilatlarni jonlantiradi. Bu jarayonda uning nutqi boyib, lug'at zaxirasi kengayadi, dunyoqarashi takomillashadi. Sahnalashtirish uchun badiiy asar, ertaklar tanlashda tarbiyachilar, ota-onalar farzandining yosh xususiyatlari, qiziqishlari, istaklarini hisobga olishlari zarur.

Saxnalashtirilgan o'yinlarning ahamiyatli tomonlaridan biri shundaki, ular orqali bola badiiy obrazni idrok qila bilishni o'rganadi, personajlar hatti-harakatini kuzatish qobiliyatini rivojlantirib boradi. Musiqiy, so'z, ko'rish obrazlaridan foydalangan holda

zarur bo`lgan ruhiy sifatlarini (idrok qilish, tassavur qilish, diqqat, tafakkur), ijrochilik ko`nikmalarini (rolga kirish, tasavvurdagi muhitda harakatlanish ko`nikmasi) va sezgilarini (mushak va hissiy) rivojlanish uchun sahna mashqlari o`tkaziladi. Badiiy asarlar bo`yicha oddiy parchalarni sahnalashtirishda bola obrazni aks ettirish uchun unga ma`lum ifoda vositalari (ohang,yuz-harakati,imo-ishora) o`rgatiladi. Har bir bola rol o`ynayotganda avvalo asar qahramoning his tuyg`u holatini sezishi va tushunishi, boshqa personajlar bilan rolni munosabatga kirishishida o`zini tutishi qobiliyatilarini shakllantirishi lozim. Rollarni ketma-ketlikda bajarish; qo`irchoqlarning birin-ketin chiqishini namoyish etish. Sahna o`yini jarayonida bola bir hodisa bilan boshqasini bog`lashi, g`oyalarni sinab ko`rishi, xatolarini tuzatishi, rejalar tuzishi, uni amalga oshirish ularning lug`at boyligining ko`payishiga va aqliy rivojlanishga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xamidova M., Ayupova M.Y. Maktabgacha tarbiya maxsus metodikasi. T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”, 2009 y
2. Хамидова М. П., Рузиев И. Д. ОСОБЕННОСТИ КОРРЕКЦИОННО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ РАБОТЫ С УМСТВЕННО ОТСТАЛЫМИ ДЕТЬМИ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА //SCIENCE AND WORLD. – 2013. – С. 80.
3. Хамидова М. П., Исмаилова М. Ш. Специфика развития математического воображения умственно отсталых детей дошкольного возраста //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 1363-1368.
4. Khamidova M. P. A Study of the Impressive Vocabulary of Preschool Children with Mental Frailty //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – С. 1787-1793.
5. Musaeva N. S., Khamidova M. P. Speech development in elementary school students and ways to develop vocabulary //International Journal of Psychosocial Rehabilitation. – 2020. – Т. 24. – №. 6. – С. 289-296.
6. Khamidova M. DEVELOPMENT OF SPEECH OF MENTALLY MENTAL CHILDREN IN THE PROCESS OF MATHEMATICS LESSONS //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2022. – Т. 2. – №. 09. – С. 1-4.
7. Хамидова М. MAXSUS MAKTABGACHA TAЪLIM MUASSASASIÐA LUFAT IŠI //Тенденцїї та перспективи розвитку науки і освіти в умовах глобалізацїї. – С. 224.